

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MEN SVETLANA RODIONOVNA

**BO‘LAJAK KOREYS TILI O‘QITUVCHILARIDA
MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (koreys tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Men Svetlana Rodionovna

Bo'lajak koreys tili o'qituvchilarida madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....3

Мен Светлана Родионовна

Методика развития культурологической компетенции будущих учителей корейского языка.....21

Men Svetlana Rodionovna

Methods of developing the cultural competence of future teachers of the korean language41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works45

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MEN SVETLANA RODIONOVNA

**BO‘LAJAK KOREYS TILI O‘QITUVCHILARIDA
MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (koreys tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7855 raqam bilan ro‘yhatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tdpu.uz hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayeva Shahzoda Abdullayevna

pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Komilov Nodirbek Boqijonovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xolmurodova Dilnoza Xolmurodovna

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi 2025-yil "___" _____ soat ___ da O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.11.2024.Ped.26.04-raqamli ilmiy kengash yig‘ilishida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.A.Atadjanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

N.M.Ahmedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Sh.A.Atadjanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlar doktori (DSc), dotsent

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon akademik muhitida bo'lajak o'qituvchilarning universal kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan integrativ texnologiyalar faol joriy etilmoqda. Ushbu sohadagi tizimli ishlar ustuvor ta'lim modellarini ta'lim jarayoniga tatbiq qilish, o'qitish metodikalarini takomillashtirish hamda ta'lim oluvchilarning egallanayotgan kasbiga aloqador bo'lgan kasbiy sifatlari va kompetensiyalarini tarkib toptirishga yordam beradigan innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilishni talab etmoqda. Bu kontekstda YUNESKOning "Ta'lim-2030" Inhxon deklaratsiyasi va harakatlar doirasi dasturi barqaror rivojlanish va ijtimoiy adolatning asosiy omillari sifatida madaniy polifoniya va madaniyatlararo dialogda tayyorlanayotgan mutaxassislarning turli tillarni o'zlashtirish darajasini oshirishni taqozo etib, til o'qitish metodikalarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tillarni o'rganish uchun noyob imkoniyat yaratadigan fan, ta'lim, ishlab chiqarish munosabatlarini integratsiyalash, yuqori sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni joriy etish, tayyorlanayotgan mutaxassislarning madaniyatshunoslik kompetensiyasi doirasida strategik harakatlarni tizimli ishlab chiqish, zamonaviy mehnat bozori talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha maqsadli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu jarayon chet tillarni, jumladan koreys tilini o'rganish uchun pedagogik imkoniyatlarni kengaytirib, o'qitish jarayoniga ilmiy va innovatsion yutuqlarni tatbiq etish, bo'lajak mutaxassislarni chet tillarda erkin muloqotga kirisha olish ko'nikmalariga ega bo'lish modellarini joriy etishga yo'naltirilmoqda.

So'nggi yillarda respublikamizda pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, "pedagogik ta'lim sohasining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish..."¹ ta'lim sifatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishi sifatida baholanib, chet tilini mukammal o'zlashtirishga oshirishga xizmat qiluvchi me'yoriy asoslar yaratilgan. Chet tillarni, xususan, koreys tilini o'rganish o'zaro hamkorlikka asoslangan madaniy, iqtisodiy munosabatlarga kirishayotgan davlatlar bilan aloqani mustahkamlashda ta'lim olish, shaxsiy rivojlanish va kasbiy imkoniyatlar uchun muhim vosita bo'lib kelmoqda. Bu esa, bo'lajak koreys tili o'qituvchilarida madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish, o'quv mashg'ulotlarining didaktik modelini zamonaviy yondashuvlar, konsepsiyalar bilan boyitish asosida til o'qitish metodikasini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 6-noyabrdagi PP-4884-son "Ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-may PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 5-iyul PF-5106-son "Yoshlarga oid

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevral "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"ga PQ-4623-son qarori/ <https://lex.uz/docs/4749368>

davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida", 2019-yil 8-oktabr PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 29-oktabr PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaror va farmonlarida hamda boshqa muvofiq me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy va kommunikativ kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar Sh.A.Abdullayeva, R.G.Isyanov, I.V.Morxova, X.A.Yulbarsova tomonidan ko'rib chiqilgan, pedagog kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismi sifatida madaniyatshunoslik yondashuvi va madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish integratsiyasi masalalari N.A. Irnazarova, S.S. Kulbayeva, U. Kodirov, M. Rasulova, Sh.Sh. Sobirova, E.U. Tursunov, M.B. Urazova, A. N. Urumbayeva, Sh.R. Xakimova ishlarida o'z aksini topgan. Ta'lim jarayonida zamonaviy o'qitish texnologiyalarini tatbiq etish masalalari N.N. Azizxodjayeva, U. Begimqulov, S.S. G'ulomov, X.Sh. Kadirov, L.S. Maxmutxo'jayeva, N.A. Muslimov, A.T. Shermuxamedov ilmiy izlanishlarida ko'rib chiqilgan.

Universal kompetensiyalarning muhim xususiyatlari va madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilishga A.A. Andreyeva, O.A. Artemeva, V.A. Babayans, I.L. Bim, L.A. Voronina, A. Den, L.I. Kan, N.V. Li, N.V. Medvedenko, L.V. Moskovkin, E.I. Passov, E.G. Petrenko, O.A. Salnikova, A.A. Sibgatullina, A.N. Fedorova, S.V. Xaritonova, A.V. Xutorskoy, I.Yu. Shakin, N.L. Shas, M.M. Shubovich va boshqalar hissa qo'shgan.

Madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini tadqiq qilishning xorijiy tajribasi Kvon Sunxi, Min Xyonsika, Pak Yonsuna, U Xyonsika, Xan sanmi, Xan Cheyona, Chu Kyonsuk, Yu Sokxuna, F. Y. Abram, A. Cruce va boshqalar ishlarida ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining "Pedagogika yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagogik kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, zamonaviy pedagogik, mudtimedia va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy qilish" (2021-2024-yy.) ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak koreys tili o'qituvchilari madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“bo'lajak koreys tili o'qituvchilari madaniyatshunoslik kompetensiyasi”ning mazmuniy tavsifi va uni rivojlantirish uchun pedagogik imkoniyatlarni aniqlashtirish;

bo'lajak koreys tili o'qituvchilari madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo'lajak koreys tili o'qituvchilari madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak koreys tili o'qituvchilari madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishni tashxislash tizimini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida bo'lajak koreys tili o'qituvchilari madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, eksperimental ishlar Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat chet tillar institutidan 132 nafar talabani jalb qilgan holda olib borildi.

Tadqiqot predmetini bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish shakl, metod va vositalari tashkil qildi.

Tadqiqot metodlari. Qo'yilgan maqsadga erishish va vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi nazariy va empirik metodlar qo'llanildi: o'rganilayotgan muammo bo'yicha pedagogik, psixologik, uslubiy adabiyotlar va me'yoriy hujjalarni o'rganish; qiyosiy tahlil, sintezlash, tahlil qilish, tasniflash, pedagogik modellashtirish metodlari; kuzatish, so'rovnomalar, pedagogik eksperiment metodlari; miqdoriy ma'lumotlarni tahlil qilish uchun matematik statistika metodlari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasi mazmuniy tavsifi uning kommunikativ, didaktik va kasbiy tarkibiy qismlarini takomillashtirish hamda bilim, qadriyat, me'yoriy, urf-odat, marosim, an'ana, bayramlar kabi madaniyatning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ko'rsatish orqali aniqlangan;

multimadaniyatshunoslik g'oyasiga tayanadigan, zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash bilan kommunikativ, didaktik, kasbiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladigan va oliy ta'lim muassasalarida “Стилистика корейского языка” fani bo'yicha o'quv jarayonida sinovdan o'tgan bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan;

“Xususiyatlar matritsasi”, “Ikki qavariqli xarita”, “Konseptual jadval” kabi zamonaviy interfaol metodlar, “Media marafoni” pedagogik texnologiyasi va Padlet, Quizlet, Quizizz, Google Forms Internet-texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladigan “Стилистика корейского языка” fanini o'rganish jarayonida bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan;

bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslikka oid kompetensiyasini rivojlantirishni tashxislash tizimi bo'lajak koreys tili o'qituvchilari

madaniyatshunoslik kompetensiyasining shakllanganligi darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalarini quyidagilar tashkil qiladi:

ta'lim tili rus tili bo'lgan bo'lajak koreys tili o'qituvchilari madaniyatshunoslik kompetensiyasining rivojlanganligi darajasini baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

zamonaviy o'qitish texnologiyalarini tatbiq qilish asosida ta'lim tili rus tili bo'lgan bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish modelining amaliy qo'llanilishini ta'minlovchi madaniyatshunoslik yo'nalishiga ega bo'lgan «Стилистика корейского языка» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua va «Памятные страницы истории» («역사의 빛나는 순간»), «Выразительность речи» («말맛») elektron ta'lim resurslari ishlab chiqilgan;

«Стилистика корейского языка» o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan (2024-yil 8 fevral 2024/34I-205-raqamli Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi guvohnomasi).

Tadqiqot natijalarining ishonchligi olingan amaliy natijalarni aks etuvchi respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlari, OAK jurnallari hamda xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalarning nashr etilganligi; so'rovnomalarning o'tkazilganligi; olingan natijalarning sinovdan o'tkazilganligi; tadqiqot vazifalariga mos bo'lgan metodlarning qo'llanilganligi; eksperimental ish tahlilining miqdoriy va sifatiy ta'minlanganligi va ularni o'qitish amaliyotiga joriy etilganligi bilan aniqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati zamonaviy o'qitish texnologiyalarini tatbiq qilish asosida bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining aniqlangan xususiyatlari, ta'lim tili rus tili bo'lgan bo'lajak koreys tili o'qituvchilari madaniyatshunoslik kompetensiyasining shakllanganligi darajasini tavsiflaydigan asoslangan mezon (yuqori, o'rta, quyi) va ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati talabalar uchun ishlab chiqilgan bo'lajak koreys tili o'qituvchilarida madaniyatshunoslik kompetensiyasini zamonaviy o'qitish texnologiyalarini tatbiq etish orqali rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv materiallar hamda ishlab chiqilgan “Стилистика корейского языка” o'quv qo'llanmasidan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasi mazmuniy tavsifi uning kommunikativ, didaktik va kasbiy tarkibiy qismlarini takomillashtirish hamda bilim, qadriyat, meyor, urf-odat, marosim, an'ana, bayramlar kabi madaniyatning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ko'rsatish orqali aniqlashga oid takliflar “Koreys tili stilistikasi (rus tilida)” nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7590/04 son dalolatnomasi). Natijada bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniy kompetensiyasining mazmunli xususiyatlarini va uni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini belgilashga erishilgan;

multimadaniyatshunoslik g'oyasiga tayanadigan, zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash bilan kommunikativ, didaktik, kasbiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladigan va oliy ta'lim muassasalarida "Stilistika koreyskogo yazika" fani bo'yicha o'quv jarayonida sinovdan o'tgan bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish modelini takomillashtirishga oid takliflar (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7590/04 son dalolatnomasi). Natijada bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniy kompetensiyasini rivojlantirish modelini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

"Xususiyatlar matritsasi", "Ikki qavariqli xarita", "Konseptual jadval" kabi zamonaviy interfaol metodlar, "Media marafoni" pedagogik texnologiyasi va Padlet, Quizlet, Quizizz, Google Forms Internet-texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladigan "Stilistika koreyskogo yazika" fanini o'rganish jarayonida bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid takliflar (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7590/04 son dalolatnomasi). Natijada bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmuni boyitilgan;

bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslikka oid kompetensiyasini rivojlantirishni tashxislash tizimi bo'lajak koreys tili o'qituvchilari madaniyatshunoslik kompetensiyasining shakllanganligi darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish orqali takomillashtirishga oid takliflar (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7590/04 son dalolatnomasi). Natijada bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniy kompetensiyasini rivojlantirish diagnostika tizimini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari dokladlar k'rinishida 3 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat, ishning umumiy hajmi 150 ta betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangililigi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda tadqiqot materiallarining joriy etilishi natijalari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tadqiqi qilinadi, ta‘lim tili rus tili bo‘lgan bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasi mazmuni va tuzilishi masalasi va bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish didaktik tizimi ko‘rib chiqiladi.

Ushbu bobning birinchi bandida “kompetentsiya”, “kompetentlik”, “madaniyatshunoslik kompetensiyasi” tushunchalari mazmuni ochib beriladi. Ilmiy manbalarning tahlili “kompetensiya” va “kompetentlik” atamalarining umumiy jihatlarga egaligi haqida xulosa qilishga imkon berdi, biroq ushbu dissertatsiya tadqiqotida “kompetentlik” deganda inson tomonidan muvofiq kompetensiyaning egallanishi, unga va faoliyat predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatni o‘z ichiga oladigan tushunchani anglaymiz, “kompetensiya” atamasi esa o‘qitish orqali egallangan shaxs bilimlari, tajribasi, qiziqishlari, moyilliklariga asoslangan umumiy qobiliyat deb idrok qilinadi.


“Madaniyatshunoslik kompetensiyasi” tushunchasi 1990-yillarning oxirida pedagogika faniga kirib keldi va samarali madaniyatlararo o‘zaro ta‘sirga nisbatan inson qobiliyati ko‘rsatkichi sifatida aniqlandi. V.A. Babayans madaniyatshunoslik kompetensiyasini chet tilda o‘zlashtirilgan lingvistik bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar majmuasi, o‘rganilayotgan til mamlakatining ijtimoy-madaniy tizimi hamda uning tiklanishiga ta‘sir qilgan tarixiy shartlarini bilish; o‘z va o‘zga til madaniyatining qiyosiy tahlilini qila olish bo‘yicha mamlakatshunoslik bilim va malakalariga asoslangan madaniyatlar dialogiga bo‘lgan qobiliyat va tayyorlik sifatida ko‘rib chiqadi. S.S. Kuklina va I.S. Cheremisinova madaniyatshunoslik kompetensiyasini – bu umuman turli madaniyatlarga tegishli insonlarning o‘zaro munosabatlaridagi o‘ziga xos jarayonlarning yig‘indisi; turli madaniyatlardan bo‘lgan kommunikatsiya ishtirokchilari o‘rtasidagi muvaffaqiyatli va samarali o‘zaro ta‘sir deb hisoblaydilar. A.N. Fedorova aynan madaniyatshunoslik kompetensiyasi inson shaxsining mustaqil rivojlanishi jarayonini tavsiflaydi deb ta‘kidlaydi. Bu jarayon asosini, bir tarafdin, individning bilimlar akkumulatsiyasiga qobiliyati, boshqa tarafdin esa, o‘zaro ta‘sirlarni qura olish va turli bilim sohalari o‘rtasida tasavvur qila olish qobiliyati tashkil qiladi deb hisoblaydi. O.Yu. Zayseva, V.V. Karix va I.V. Mixaylovalar bo‘lajak pedagoglar nazariy bilimlarni o‘zlashtirganda, bir vaqtda aniqlanmagan va deyarli o‘rganilmagan masalalarni o‘zi uchun belgilaganda; o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishni namoyon qilganda; ijodiy ishlarda va mustaqil ishlashda o‘zini namoyon qilganda turli xil tashkilotchilik faoliyatiga kirishganida madaniyatshunoslik kompetensiyasi rivojlanganligining yuqori darajasiga erishadi deb tasdiqlaydilar.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasi, o‘z milliy madaniyati va Koreya madaniyati haqidagi bilimlarning integratsiyasiga asoslangan, mustaqil ish, ijodiy va tashkilotchilik faoliyatda namoyon bo‘ladigan talaba shaxsining mustaqil rivojlanishi jarayoni aniqlangan, bu holat samarali madaniyatlararo o‘zaro ta‘sir va ko‘p millatli ta‘lim ko‘lamiga moslashishni ta‘minlab, muvaffaqiyatli pedagogik va kommunikativ amaliyotga imkon beradi.

Ayrim oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining kuzatilishi va tahlil qilinishi shuni aniqlashga imkon berdiki, talabalarning madaniyatshunoslik kompetensiyasi rivojlanganligi darajasi oliy maktab talablaridan yiroqda. Xususan, 5111300 – Ona tili va adabiyoti (koreys tili va adabiyoti) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari boshidan koreys tilini deyarli egallamaganligi ularning kasbiy ko'nikmalarining yanada rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, koreys tiliga o'qitish koreys madaniyatini o'rganishga qiziqishni rivojlantirishga rag'batlantirishi kerak.

Tadqiqot borishida b'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari bilimlar, qadriyatlar, meyorlar, marosimlar, urf-odatlar, an'analar, bayoramlar kabi madaniyatning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni belgilash orqali aniqlangan. Madaniyatshunoslik kompetensiyasi murakkab bir necha tarkibiy qismlarga ega bo'lgan hodisani bildirib, bir qancha kompetensiyalardan iborat. Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, madaniyatshunoslik kompetensiyasi tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq va o'zaro shartlangan bo'lib hisoblanadi, demak, ularning rivojlanishi faqat chambarchas o'zaro aloqada sodir bo'lishi mumkin. Bu borada ularga quyidagi tarkibiy qismlarni kiritish mumkin (1-rasmga qarang):

Ushbu tasniflashdan kelib chiqib, madaniyatshunoslik kompetensiyasiga quyidagilar kirdi: kommunikativ, didaktik va kasbiy kompetensiyalar.



1.-rasm. Bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasi tuzilishi

Kommunikativ kompetensiya ko'p qirrali hodisa sifatida bir qancha kompetensiyalardan iborat. Fikrimizcha, talabalarda kommunikativ kompetensiya tarkibiy qismining eng oqilona xususiyatini V.V. Safonova keltiradi, u "kommunikativ kompetensiya tuzilishida tilga oid, nutqiy va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni ajratadi".

Madaniyatshunoslik kompetensiyasining quyidagi muhim tarkibiy qismi bo'lib o'quv (bilim, ko'nikma va malakalar, motivasion (ichki va tashqi motivlar) va axborotga oid (turli sohalaridagi keng fikrlash doirasi) jihatlarni o'z ichiga oladigan didaktik kompetensiya hisoblanadi. Madaniyatshunoslik kompetensiyasining uchinchi tarkibiy

qismi – kasbiy kompetensiya. I.A. Pesina fikriga ko‘ra, “kasbiy kompetensiya harakatda, alohida va kasbdoshlar bilan hamkorlikda, kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish va uning natijalarini mutaxassislik bo‘yicha ishlab chiqarish talablariga ko‘ra baholashga imkon beradigan kasbiy shaxslararo muhitda qadriyatli anglangan universal bilim, vosita, metod va usullar majmuasini egallashning standarti, o‘lchovidir”. E.A. Kagakina, T. A. Chekalinalar o‘z ishlarida kasbiy kompetensiyalarning tuzilishida quyidagi tarkibiy qismlarni ajratadilar: kognitiv, operasion, motivasion, reflektiv-baholovchi. Ushbu bob doirasida shuningdek madaniyatshunoslik kompetensiyasining samarali rivojlanishi uchun psixologik-pedagogik shartlarning ta‘siri tahlil qilingan, bular: 1) faol ijodiy faoliyatni tashkil qilish; 2) fanlararo aloqalarni hisobga olgan holda vaziyatlarni yaratish; 3) hamkorlikdagi didaktik faoliyat orqali o‘qitishni tashkil qilish; 4) b‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining vitagen tajribasi asosida refleksiya k‘nikmalariga o‘qitish; 5) o‘qitish jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish. Shu psixologik-pedagogik shartlar majmuasining qo‘llanilishi pedagogika OTM da bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarida bilishga qiziqishni rag‘batlantiradigan, madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantiradigan hamda ularning kasbiy tiklanishiga yordam beradigan koreys tiliga o‘qitishning samarali didaktik tizimini yaratishga imkon berishi ta‘kidlangan.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari asosida bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va ularning bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli ko‘rib chiqilgan, takomillashtirilgan bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish modeli berilgan, “Стилистика корейского языка” fani bo‘yicha mashg‘ulotlarda bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradigan metod va usullar belgilangan.

L.G. Orlova va E.S. Kornilovalar zamonaviy chet tilga o‘qitish texnologiyalarida o‘qitish texnologiyalari (Technology of Teashipd) va o‘qitishda texnologiyalarni (Technology in Teaching) ajratadilar. O‘qitish texnologiyalari (yoki ularni ba’zida pedagogik texnologiyalar deb atashadi) shunday texnologiyalar to‘plamini ‘z ichiga oladiki, bunda o‘qituvchi ularning yordamida o‘qitish maqsadlariga erishadi. O‘qitishda texnologiyalar – bu o‘qitish maqsadlariga erishish jarayonida foydalaniladigan texnik o‘qitish vositalari (axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT), Internet, turli darajali o‘qitish texnologiyalari va h.).

Mamlakatimizda raqamli iqtisodni faol rivojlantirish hamda barcha sohalarga, avvalom bor, davlat boshqaruvi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligiga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha kompleks choralar amalga oshirilmoqda. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabr PF-6070-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uning samarali amalga oshirilishi bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinib, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish asosida ta‘lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy bazani mustahkamlashga olib keldi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalari turlaridan biri bo‘lib oddiy hayotda kabi OTM ta‘lim jarayonida ham

yanada katta ommalashishga ega bo'lgan Internet-texnologiyalar hisoblanadi. Internet-texnologiyalarning metodik salohiyatini o'rganishga G.A. Vorobyev, A.A. Dragunova, E.D. Koshelayeva, A.G. Solomatinalarning ko'pgina tadqiqotlari qaratilgan. A.O. Pliyeva ta'kidlaydiki, Internet-texnologiyalar haqiqatda o'qitish natijalarini yaxshilashga imkon beradigan muhim didaktik salohiyatga ega. Yetakchi Internet-texnologiyalarga blog, veb-vestlar, videoanjumanlar, Vikipediya, matnlar korpusi, ta'lim saytlari va platformalari, onlayn-lug'atlar, podkastlar, YouTube ni kiritish mumkin. Blog – muntazam yangilanib boriladigan yozuv, tasvirlar va multimediyaga ega veb-sayt. O'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish va pedagogik va metodik tajriba bilan almashinishga yordam beradi. Veb-vestlar (Internet-loyihalar) – o'quv Internet-materiallarni yaratishning 'ziga xos usuli. O'qish va mustaqil izlanish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Videoanjuman – bir qancha foydalanuvchilar o'rtasida real vaqtda interfaol axborotni uzatish va qayta ishlash uchun axborot texnologiyasi. Masofaviy o'qitish va muzokaralar hamda tinglash, gapirish, kommunikatsiya va taqdimotlar o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Vikipediya – foydalanuvchilar bilan yaratiladigan va turli mavzularga oid maqolalarga ega bo'lgan ko'p tilli ensiklopediya. Axborot manbasi vazifasini bajaradi, kerakli axborotni tanlash esa yozish, o'qish (ko'rish, o'rganish va izlash) ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Matnlar korpusi – tilni tadqiq qilish uchun tanlab olingan va ishlab chiqilgan matnlar bazasi. Axborot va leksik-grammatik resurslar bilan tadqiqot ishi ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Ta'lim saytlari va platformalari – bu turli ta'lim fanlari bo'yicha o'quv materiallari va topshiriqlarga ega bo'lgan onlayn-resurslar. Ba'zi bir platformalar motivatsiya uchun o'yin belgilari yoki reyting tizimdan foydalanadi hamda o'quv materialini o'zlashtirishda mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi. Onlayn-lug'atlar – Internetda joylashtirilgan elektron lug'atlar. So'zlarning izlanishini yengillashtiradi va chet til bo'yicha bilimlarni kengaytiradi. Podkastlar – Internetda audio – va videoko'rsatuvlarni yaratish va tarqatishga imkon beruvchi ijtimoiy servis. Tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'llaniladi, o'z podkastlarini yozish esa og'zaki nutqni shakllantirishga yordam beradi. YouTube – yozish, og'zaki nutq, tinglash, o'qish hamda leksik va grammatik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ishlatiladigan turli videomateriallar xostingi (joylashtirish) servisi.

Yuqorida aytib o'tilgan texnologiyalardan har biri muhim didaktik imkoniyatlarga ega va talabalarda o'qilgan (tinglanganni) axborotni tushunish, zaruriy (berilgan) axborotni qayd etish, o'qilganning (yoki tinglanganning) asosiy mazmunini uzatish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ta'lim saytlari va Padlet, Quizlet, Quizizz, Google Forms platformalari samarali va ko'p funksiyali Internet-texnologiyalar hisoblanadi, ular o'yin shakli tufayli motivatsiyani oshiradi va o'qitish jarayonini qiziqarli qiladi. Buning ustiga har qanday vaqtda materiallarga kirishni ta'minlaydi va o'qituvchiga o'quv jarayonini turlicha qilishga imkon beradi.

Madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari va nuqtai nazarlarini tahlil qilish hamda bir qator pedagogika OTM larida bo'lajak koreys tili o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini kuzatishlar bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish modelini takomillashtirish zaruriyatini tasdiqladi.


Taqdim qilingan bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish indikativ (yo'naltiruvchi) modeli (2-rasm) multimadaniyatshunoslik g'oyasida asoslangan va muvaffaqiyatli kasbiy va madaniyatlararo o'zaro ta'sir uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayonida madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Indikativ modelni yaratish metodologik yondashuvlari quyidagilar hisoblandi: shaxsga yo'naltirilgan, kommunikativ, faoliyatli, kompetentli, madaniyatshunoslik yondashuvlari. Bo'lajak koreys tili o'qituvchilari madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni asosini quyidagi didaktik tamoyillar tashkil qildi: insonparvarlik, tizimlilik, bog'langanlik, izchillik, madaniy xilma-xillik va boshqalar.

Ishlab chiqilgan bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish indikativ modelining asosini quyidagi tarkibiy qismlar tashkil qildi: kommunikativ, didaktik va kasbiy. Kommunikativ tarkibiy qism til, nutqiy va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda talabalar koreys tilini muloqot vositasi sifatida o'zlashtiradi, bu kelgusida kasbiy o'qitish uchun zaruriy shart bo'lib hisoblanadi. O'qitish doirasida kommunikativ to'siqlar bartaraf etiladi, madaniyatlararo muloqot me'yorlari, usdublari va usullari o'zlashtiriladi, bu koreys tilida nutq faoliyatini amalga oshirishning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va shaxslararo kommunikatsiyani muvaffaqiyatli o'rnatishni rag'batlantiradi. Didaktik tarkibiy qism psixologik-pedagogik bilimlar va ularning metodologiyasi sohasida kognitiv yo'nalganlikka urg'u beradi. Talabalar kommunikativ kompetensiyaning asosiy darajasini egallaydi, bu ularning koreys tilidan foydalanishning didaktik malakalari va kompensator ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kasbiy tarkibiy qism madaniyatshunoslik kompetensiyasining shakllanganlik darajasini ko'rsatuvchi ijodiy yondashuvlar va real o'yinlardan foydalangan holda talabalar bilan sinov darslarini o'tkazishni o'z ichiga oladi, bu bosqichda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy o'sishi uchun muhim bo'lgan kommunikatsion va didaktik kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor beriladi.

Bo'lajak koreys tili o'qituvchilarida madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish indikativ modelining mazmuniy blokiga quyidagilar kiritildi: qo'shimcha content, method va vositalar (ta'lim materiallari, elektron ta'lim resurslari, o'quv mashg'ulotlari turlari). Ushbu tarkibiy qismlar muxim ta'lim, didaktik va madaniyatshunoslik salohiyatga ega. Taqdim qilingan bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish indikativ modeli dissertatsiya tadqiqotining uchinchi bobida batafsil ta'riflanib, eksperimental tekshiruvdan o'tkazildi.

Ushbu bob doirasida shuningdek "Стилистика корейского языка" fanini o'qitish jarayonida muvaffaqiyatli foydalanilgan "Xususiyatlar matrisasi", "Ikki pufakli xarita", "Kontseptual jadval", "Intellekt-xarita", "Semantik xaritani qurish", "Kalit so'zlarni tanlash metodi", "Mulohazalar zinapoyasi", "Madaniy kaleydoskop", "Analogiya", "Smart-kartochkalar" va "Multimedia taqdimoti" bilan ishlash, "onlayn-viktorina", "onlayn-test" va b. hamda "Media marofoni" pedagogik texnologiyasi kabi metod va usullar ko'rib chiqilgan va bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish indikativ modelini qo'llashga yordam bergan.



2.-rasm. Bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish indikativ modeli

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini tatbiq etish asosida bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha eksperimental ish”** deb nomlangan uchinchi bobi zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini tatbiq etish asosida bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha eksperimental ishning tashkil qilinishi va o‘tkazilishi hamda eksperimental ish tahlili va natijalarini yoritadi.

2021-2024-yillar mobaynida Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat chet tillar institutida uch bosqichda o‘tkazilgan eksperimental ish mazmuni va natijalarining tahlili. Eksperimentda 132 nafar talaba ishtirok etdi.

Bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha eksperimental ish uch bosqichda o‘tkazildi:

Ta‘kidlovchi bosqich (2021-2022 yy.) – o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlar va me‘yoriy hujjatlarning tahlilini qilish.

Shakllantiruvchi bosqich (2022-2023 yy.) – bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish modelini takomillashtirishga qaratilgan eksperimental ishni amalga oshirish.

